

**G'OFUR G'ULOMNING "MENING O'G'RIGINA BOLAM" HIKOYASIDA
O'ZBEK XALQINING O'ZIGA HOS BO'LGAN TUSHUNCHALARINI
TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR**

Sirojiddinova Xurshidaxon Rustambek qizi

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Gafurova Nozima Ikromovna

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, taniqli o'zbek yozuvchisi G'ofur G'ulomning qalamiga mansub "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasini ingliz tiliga tarjima qilishdagi muammolar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Tarjimon, hayotiy voqea, qochirma, metafora, tarjima tili, asliyat.

Kirish

Adabiyot – so'z san'ati hisoblanar ekan, badiiy asarlar tarjimasiga nisbatan ham bu ta'rifni qo'llash mumkin. Chunki tarjima adabiyoti asl adabiyotning hosilasi hisoblanadi. Badiiy asarlarni tarjima qilishda faqatgina tilni yaxshi bilishni o'zi kifoya qilmaydi, balki uning ijodkorlik iste'dodi hamda badiiy salohiyati va teran fikri ham zarur. Shuning uchun ham badiiy asarlar tarjimasiga shoir-yozuvchilar va badiiy adabiyotdan bobahra kishilargina qo'l uradilar chunki so'z san'atkorlarining olamlarini tushunish uchun ular ham haqiqiy qalban san'atkor bo'lmog'i zarur.

Har bir millat adabiyotini o'z ona tilida o'qishi maroqli. Ammo til bilmasliging uni noiloj asarning tarjimasini qo'lga olishga kirishasan. Tarjima tarixi juda qadim zamonlardan boshlangan. Qadim zamonlardan buyon turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir- birlari bilan muomala qilganlarida tilmoch ya'ni tarjimon bilan ish bitkazganlar.

Tarjima o'z tabiati bilan ham orginal ijod jarayonidan farq qiladi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl nusxa matnini yangi til vositasida qayta yaratadi. Tarjimon muallifning g'oyaviy-estetik dunyosi, kitobxonni rom etgan jozibani yangi o'quvchilarga yetkazib berishga bel bog'lagan kishidir. Badiiy asarlar tarjimasiga qo'l uradigan tarjimon ikki -asliyat hamda tarjima tilini chuqur bilishi, ijodkorlik iste'dodiga ega bo'lishi bilan birga badiiyat qonuniyatlariga ham "tishi o'tishi" taqozo etiladi.

G'. Salomovning fikriga ko'ra, tarjima atamasi forscha «tarzabon» so'zining o'zgargan shaklidir. Tarzabon fors tilida «chiroyli so'zlovchi, notiq, tili burro kishi» degan ma'nolarni anglatadi. Asli arabcha bo'lgan ushbu so'z «tarjumon» shaklida bo'lib, undan «tarjimon», «tarjima» so'zlari hosil bo'lgan.

Zamonaviy tarjimashunoslikning shakllanishiga hissa qo'shgan ingliz tarjimashunosi J. Ketfordning «Tarjimashunoslikning til nazariyasi» ilmiy tadqiqoti ham muhim o'rin tutadi.

Metodologiya

Asarni o'zbek adabiyotining yirik namoyondasi O'zbekiston xalq shoiri akademik G'ofur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" asari haqida so'z ketadi. Asardagi turli obrazlar ta'siri orqali o'tgan hamda hozirgi zamon haqida atroflicha fikr yuritiladi hamda turli xulosalar qilishga undovchi fikrlar aytib o'tiladi.

Mening o'g'rigina bolam asariga keladigan bo'lsak u bejizga voqeyaviy hikoya emas chunki hikoyada yozuvchi bolaligida guvoh bo'lgan "hayotiy voqea" asos qilib olingan bo'lib, u asar avtobiografik harakterga ega. Aslida biror odamning uyiga o'g'ri tushishi favqulodda vaziyat lekin bu hikoyada uyiga o'g'ri tushganligi maqtanishga arzidigan holatdek sokin va tinch bayon qilingan.

Hikoya 1917-yilning sentabr oylarini va u paytdagi urush yillarining qiyinchiliklari ko'rsatib o'tiladi. Bu urush ko'plab boshqa millatlar qatori bizning xalqimiz boshiga ham cheksiz kulfatlar soldi. «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi qahramonlari, aslida, mana shu urushning tirik qurbonlaridir. Agar «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasiga shu sharoitdan kelib chiqib yondoshsak, qing'irlik bu o'lkada oddiy hodisaga aylanib ulgurgan edi. Yurt tepasida turganlarning har kuni qilayotgan o'g'riligi oldida, bir kambag'al oilaga boshqa bir nochorning o'g'ri sifatida tushishi favqulodda hodisa bo'lmay qolgandi.

Hikoya har xil qochirmalar, metaforalar hamda frazeologik birliklardan iborat bo'lib, asarni tarjima qilishda tarjimonga bir qancha qiyinchiliklar tug'diradi. So'zlarning ma'nolari hamda gapda kelayotgan ma'nolari bir-biridan farq qiladi. Misol uchun: O'g'rining "Shunday qilib desangiz, buvijon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi" deb aytgan so'zlarida sirimning xashagi ochilishi tushunchasi ingliz tiliga to'g'ri keladigan muqobil so'zi "the opening straw of my secret" bo'lolmaydi. Asli sirimning xashagi ochilishi ma'nosi ingliz tilidagi alternative variant bor deb aytolmaymiz. Sababi buni so'zma-so'z tarjima qila olmaymiz, buning o'rniga ingliz tilida shunga mos bo'lgan birorta metafrik birlikni topishimiz kerak. "Davlati mil-mil" gapiga e'tibor qaratsak, aslida bu yerda boyligi ko'p ma'nosini keltirib chiqarsak bo'ladi, ya'ni boyligi juda ko'payib ortib ketyapti ma'nosida ko'rsatib bermoqchi bo'lgan. Lekin tarjimada "money has increased" deb tarjima qilsak yozuvchi o'ylagan fikrni to'lig'icha odamlarga yetkazib berolmaymiz va chalkashlik bo'ladi. "G'ulomgardish" so'zi ingliz tilida uchramaganligi sababli o'zimizning tilda hovli darvozasi yonida qullar yashaydigan kulba ma'nosidagi muqobili "a hut where slaves live" bo'ladi, lekin bu so'zni ishlatishlik asardagi ma'noga salbiy ta'sir qilmaydi. "Rangi pano" so'zi ingliz tilida uchramaganligi bois sharh berib ketish kerak, "rangi o'chgan, qonsiz" so'ziga muqobil sifatida "discolour, without blood" so'zlarini ishlatishimiz mumkin.

“Murt gardoni” soʻzini ham ingliz tilida uchramaydi, shu tufayli oʻzbekchadagi muqobili hisob-kitobi, javobi maʼnolarida keladi, bu esa inglizchada “calculation, answer” degani va shunga oʻxshash boshqa soʻzlarida ham tarjimada ham muqobilini topishga qiynalishimiz mumkin.

Xulosa

Xulosa oʻrnida shuni aytib oʻtishim kerakki, tarjimon tarjima qilayotgan asarini qalban tushunib oʻquvchiga yetkazib bera oladigan boʻlsagina haqiqiy tarjimon boʻla oladi. Bugungi kunda tarjimaga kun sayin ortib borayotgan kundalik ehtiyoj oʻz navbatida malakali tarjimonlarga boʻlgan ehtiyojning oʻsishiga olib kelmoqda.

Avvallari ham, bugungi ham olimlar tarjimashunoslik ustida koʻplab izlanishlar olib bormoqdalar. Misol uchun Professor Gʻaybulla Salomov birinchilardan boʻlib bu ikki yoʻnalishni birlashtirgan, yaʼni tarjima ham lisoniy, ham badiiy hodisa ekanini ilmiy jihatdan isbotlagan. «Tarjima tarixi», «Tarjimashunoslikka kirish», «Umumiy tarjima nazariyasi asoslari» degan kurslarni ishlab chiqib, dasturlar tuzgan va ikkita darslik yozib, nashr ettirgan. Bu darsliklardan hozir ham oliy oʻquv yurtlarida foydalanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Saydulla Mirzayev. XX asr oʻzbek adabiyoti. «Yangi asr avlodi» Toshkent, 2005
2. Gʻafur Gʻulom. Mening oʻgʻrigina bolam. Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashr. 1993.
3. Moʻminov O., Turgʻunov R., Rashidova A., Alimova D., - Translation – Yozma tarjima – Pismenniy perevod. –T., 2008.
4. Мусаев Қ., “Таржима назарияси асослари”. – Т., 2005.
5. Одилова Г, Махмудова У., Ўзбек таржимонлари ва бадий таржималар. – Т., 2012
6. Sirojiddinov. Sh., Odilova G., Badiiy tarjima asoslari. – Т., 2011.
7. Gʻaybulla Salomov ilmiy va ijodiy faoliyatiga oid maʼlumotlar. Samarqand, 1992.